

TARIX

Klichev Oybek Abdurasulovich

Oriental universiteti
tarixi kafedrası dotsenti, tarix
fanlari doktori (DSc)

klichev_oybek@mail.ru

BUXORO AMIRLIGIDAGI ROSSIYA IMPERATORINING SIYOSIY AGENTLIGI VA UNING VAKOLATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi hududida siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy yo‘nalishlarda yuritgan siyosatini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan muassasa vakolati masalalariga bag‘ishlanadi. Tadqiqot O‘zbekiston Milliy arxividagi mavjud ushbu tashkilot hujjatlari tahlili asosida olib borilgan. Siyosiy agentlik vakolatlari bilan bog‘liq ma‘lumotlar bu muassasaning faoliyat doirasini yanada chuqur tushunish va anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘z va iboralar. Amir Muzaffar, siyosiy agent, Rossiya Davlat Kengashi, N.V.Charikov, Turkiston general-gubernatori, yozishmalar, amirlik hukumati, sirkulyar, rezident, rus mazilgohlari.

РОССИЙСКОЕ ИМПЕРАТОРСКОЕ ПОЛИТИЧЕСКОЕ АГЕНТСТВО В БУХАРЕ И И ЕЕ ПОЛНОМОЧИЯ

Аннотация. Статья рассматривается вопросам полномочий учреждения, созданного в целях реализации политики Российской империи на территории Бухарского эмирата в политическом, экономическом и социальном направлениях. Исследование проводилось на основе анализа документов данной организации, имеющихся в Национальном архиве Узбекистана. Сведения, связанная с полномочиями политического агентства, позволяет глубже понять и осмыслить сферу деятельности этого учреждения.

Ключевые слова и фразы. Эмир Музаффар, политический агент, Российский государственный совет, Н.В.Чариков, генерал-губернатор Туркестана, переписка, эмирское правительство, циркуляр, резидент, русские поселения.

THE RUSSIAN IMPERIAL POLITICAL AGENCY IN BUKHARA AND ITS POWERS

Annotation. The article is devoted to the issues of the authority of the institution established in order to implement the policy of the Russian Empire in the territory of the Emirate of Bukhara in political, economic and social areas. The study was conducted on the basis of an analysis of the documents of this organization available in the National Archives of Uzbekistan. Information related to the powers of a political agency allows for a deeper understanding and understanding of the field of activity of this institution.

Keywords and phrases. Emir Muzaffar, political agent, Russian State Council, N.V.Charykov, Governor-general of Turkestan, correspondence, Emir's government, circular, resident, Russian settlements.

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyo mintaqasi tashqi siyosat yo'nalishi, asosan, Rossiya imperiyasi ta'siri ostida edi. Harbiy harakatlar, ularning yakunida imzolangan davlatlararo shartnomalarlar mazkur holatni huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qilgan deb ta'kidlash mumkin. 1868- va 1873- yillarda imzolangan Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi sulh hujjatlari buning yorqin misolidir. Shu o'rinda imperiya mutassadilarining asosiy maqsadlaridan biriga amirlikning harbiy, geosiyosiy joylashuvi, qolaversa, uning mintaqa iqtisodiyotida asosiy bo'g'ini bo'lganligini inobatga olgan holda amirlik hukumatiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilganligini inkor etish mushkul. Shu sababdan bo'lsa kerak, XIX asrning 70-yillaridan e'tiboran imperiya siyosatchilari o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ham aynan amirlikda O'rta Osiyoda birinchi harbiy, diplomatik vakillik muassasini ochishga intildi. Bu Rossiya imperatorining Buxoro amirligidagi siyosiy agentligi edi.

Adabiyotlar sharhi. Rossiya imperatorining Buxoro amirligidagi siyosiy agentligi faoliyati va vakolatiga doir asosiy, birlamchi manbalar O'zbekiston Milliy arxivi fondlarida mavjuddir. Jumaladan, mazkur arxivning I-3- fondi aynan "Rossiya imperatorining Buxoro amirligidagi siyosiy agentligi" deb nomlanadi. Mazkur maqolani tayyorlashda, asosan, I-1, I-2 hamda I-3- fondlaridagi tegishli yig'ma jildlardagi ma'lumotlar tahlil etildi.

Natija va muhokama. Rossiya Davlat Kengashi 1885-yil 12-noyabrda "Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligi (keyingi o'rinlarda siyosiy agentlik)"ni tashkil etish xususida tegishli qaror qabul qiladi. Siyosiy agentlik 1886-yil 1- yanvardan 1917- yil 17-martgacha o'z faoliyatini olib borgan.

Siyosiy agentlik asosan Rossiya imperiyasi qonun qoidalari va manfaatlariga rioya qilgan holda ish yuritardi. Uning asosiy vazifalaridan biri amirlikning tashqi va ichki hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ustidan nazorat o'rnatish bo'lgan. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi protektorati ostida bo'lganligi ham bir tomondan amirlikda siyosiy agentlikning tashkil etilishi uchun asos bo'ldi.

Amirlik ma'muriyati siyosiy agentlik orqaligina imperiya hukumati bilan davlatlararo munosabatlarga kirishgan. Agentlikning rahbari vazifasini bajargan siyosiy agent Buxoro amirligi bilan bog'lik masalalar yuzasidan amirlik qo'shbegisiga murojaat qilardi. Bu murojaatlar ikki tomonlama yozishmalar shaklida olib borilgan. Yozishmalarda ko'tarilgan masalalar va ularning yechimiga oid ma'lumotlar Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixini o'rganishda muhim manba vazifasini o'tab kelmoqda.

Siyosiy agentlikni tashkil etish masalasi yuzasidan Turkiston general-gubernatori va Tashqi ishlar vaziri o'rtasida olib borilgan yozishmalar o'z mazmuniga ko'ra muhim hisoblanadi. Ularning guvohlik berishicha, Tashqi ishlar vazirligining Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbax nomiga 1884-yil 18-iyunda yuborgan xatida Buxoro amirligida Rossiya imperiyasining vakili tayinlanishini bildirganini ko'rish mumkin [1]. Xatda tashkil etilishi rejalashtirilgan siyosiy agentlikka rahbar etib N.V.Charikovni tayinlash maqsadga muvofiq ekanligi alohida qayd etiladi.

N.O.Rozenbax ham o'z navbatida siyosiy agentlik va siyosiy agent lavozimini tashkil etish masalasiga ijobiy baho berib, siyosiy agent lavozimining tashkil etilishi amirlik ma'muriyatining bevosita general-gubernator devonxonasi bilan olib boradigan yozishmalarining kamayishi va diplomatik vakillar almashuvining qisqarishi, amirlikda rus aholisi manfaatlarini himoya qilish va savdo munosabatlarining rivojlanishida alohida o'rin egallashi mumkinligini qayd etgan [2].

N.V.Charikov Buxoro amirligida birinchi siyosiy agent vazifasini bajargan va agentlikni tashkil etish ishiga alohida jonbozlik ko'rsatgan shaxslardan biri hisoblanadi. U agentlik tashkil etilishga qadar bo'lgan muddatda qo'shbegi bilan rasmiy munosabat va yozishmalar olib boradi. Jumladan, 1884-yilda Turkiston general-gubernatorining amirlik qo'shbegisiga qilgan rasmiy murojaatida diplomatik qism amaldorining o'z vazifasiga tayinlanishi va faoliyati doirasidagi vazifalar ko'rsatilgan edi. Qo'shbegi esa amirlik hukumati o'z navbatida mazkur amaldor bilan aloqalar olib borishi mumkinligini ta'kidlagan. Bu amaldor, albatta, N.V.Charikovedi.

Diplomatik amaldor sifatida N.V.Charikov 1884-yil 9-avgust sanasida №324 raqamli xat bilan murojaat qilib o'zining Tashqi ishlar vazirligi tomonidan mazkur amaldor vazifasiga

10 tayinlanganligi va bundan keyingi muddat davomida ikki mamlakat o'rtasida olib boriladigan munosabatlar muhimligini ham ta'kidlab o'tadi [3]. Amirlik qo'shbegisi 1884-yil 26-avgustda diplomatik qism amaldori sifatida faoliyat yuritgan N.V.Charikovnomiga yo'llagan ilk javob xatida ikki mamlakat o'rtasida munosabatlar olib borishda yordam berishni bildiradi [4].

E'tiborlisi, Buxoro hukmdori Amir Muzaffar 1884-yil 30-avgust sanasida diplomatik qism amaldori N.V.Charikovga o'ziga xos tarzda xat bilan murojaat qiladi. Amir N.V.Charikovning lavozimga tayinlanganligidan xabardor ekanligini bildirib, unga bir qancha sovg'alar taqdim etadi [5]. Bu tadbir diplomatik etiket hamda umumqabul qilingan tartiblarning ijrosi hisoblanadi. Garchi N.V.Charikov diplomatik qism amaldori bo'lsa-da, siyosiy agentlikni tashkil etish masalasi yuzasidan 1884-yil sentabr oyida tarjimon Guberskiy, kotib Divayev bilan birga amir qabulida bo'ldi. Uchrashuvda qurilishi rejalashtirilgan siyosiy agentlik binosi uchun joy ajratish masalasi ham muhokama qilindi. Bu masala ikki mamlakat vakillari imzolagan shartnomaga asoslanib ijobiy hal etilishi kerak edi. Shu holatdan kelib chiqib, 1886-yil 1-yanvardan e'tiboran siyosiy agentlik o'z faoliyatini boshladi.

Buxoro amirligida tashkil etilgan imperator siyosiy agentligi va agentlik xodimlari faoliyati Rossiya imperiyasi qonun qoidalariga asoslanib tashkil etilgan. Siyosiy agent va agentlik xodimlari Tashqi ishlar vazirligi farmoyishiga binoan tayinlangan. Tashqi ishlar vazirligi farmoyishi – Rossiya imperiyasining tashqi ishlar vazirligi tizimidagi xodimlarga yo'naltirilgan maxsus farmoyish turi hisoblanadi. Bu turdagi hujjatdof chet eldagi missiya, konsullik va elchixonalar xodimlarini tayinlash, boshqa joyga o'tkazish, ma'lum muddatga xizmat safari belgilash, mehnat ta'tiliga yuborish, o'z arizasi yoki oilaviy sharoitidan kelib chiqib, ishdan bo'shatish kabi alohida-alohida ko'rsatmalar belgilangan [6].

Agentlik dastlab, o'zining xizmat faoliyati davomida quyidagi ishlarni amalga oshirgan.

1. Jinoiy ishlar bo'yicha cheklanmagan va appelyatsiyasiz sud faoliyati.
2. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud (bu faoliyat ichiga rus sud qarorlarining ijrosini taminlash, sud chaqiruv qog'ozini yuborish, mahbuslar bilan bog'liq faoliyat, surishtiruv).
3. Notarial qism faoliyati.
4. Konsullik xizmati doirasida fuqarolarga pasportlar taqdim etish va chet el fuqarolariga homiylik qilish.
5. Diplomantik qism faoliyati doirasida Buxoro amirligi va Afg'onistondagi voqealar xususida ma'lumot to'plash.
6. Rus savdogar qatlamlarining tadbirkorlik faoliyatiga homiylik, g'amxo'rlik va bu masala yuzasidan savdo va ishlab chiqarish vazirligi bilan munosabatlarga kirishish.
7. Buxoro amirligida imperator vakili sifatida (Buxoro amiri bilan uchrashish va kuzatuv ishlarini olib borish, amir tomonidan mansabdor shaxslarga yuboriladigan telegrammalarni tuzish, amir tomonidan taqdirlanadiganlarning ro'yxatini tuzish hamda orden va guvohnomalarni tayyorlash, imperiya ma'murlarining taqdimotiga asosan Buxoro amiri ordenlariga munosib nomzodlarni ko'rsatish, rus va chet ellik fuqarolarni amir bilan uchrashishga taqdim etish).
8. Turli shaxs, jamiyat va muassasalarning Buxoro hukumati bilan munosabatlar olib borishini tashkil etish.
9. Rossiya imrepiyasi hukumati talabiga asosan Buxoro amirligi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun ajratiladigan mablag'larning hisob-kitobini amalga oshirish.
10. Buxoro amirligidagi rus manzilgohlarini boshqarish.
11. Eski Buxoroda faoliyat olib borgan oltita bankning faoliyatini nazorat qilish.
12. Rossiya harbiy vazirligining Buxoro amirligi hududida qo'shinlarni ko'chirish bilan bog'liq ko'rsatmalarining ijrosini nazorat qilish.
13. Yangi Buxorodagi rus manzilgohida boshqaruv va u erda joylashgan politsiya, qamoqxona va xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash.
14. Eski Buxoroda joylashgan rus-tuzem shifoxonasi, ayollar ambulyatoriyasi, rus-tuzem maktablarini bevosita, to'g'ridan-to'g'ri boshqarish.
15. Siyosiy agentlik kassasida saqlanayotgan agentlik mablag'larining sarhisobini boshqarish va boshqalar [7].

Mazkur vakolatlar agentlik faoliyat yuritgan davr mobaynida takomillashib borgan. Ularning ayrimlari maxsus tashkil etilgan lavozimdagi shaxslar ixtiyoriga o'tgan.

Siyosiy agentlarni tayinlash masalasiga Tashqi ishlar vazirligi alohida e'tibor bilan qarardi. Har bir siyosiy agent o'z lavozimiga tayinlaganligidan boshlab to o'z lavozimidan ketganigacha bo'lgan muddatda o'ziga xos diplomatik qoidalarga rioya qilgan[8]. Mazkur tashkilotning faoliyati davomida turli yillarda siyosiy agent lavozimida N.V.Charikov (1886-1890-y.y.), P.M.Lessar (1890-1895-y.y.), V.I.Ignatev (1895-1902-y.y.), Y.Y.Lyutsh (1902-1910-y.y.), A.S.Somov (1911-1913-y.y.), L.K.Belyayev (1914-1916-y.y.), A.YA.Miller (1916-1917-y.y.) ishlagan.

Xulosa. Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi vakili maqomidagi ushbu tashkilot Rossiya - Buxoro munosabatlarini amalga oshirishda muhim bo'g'in vazifasini bajargan. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat hukumatlararo yozishmalar shaklida olib borilganligini inobatga oladigan bo'lsak, agentlikda devonxona faoliyatiga alohida e'tibor berilganligini ko'ramiz. Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligi 1917-yilning martidan e'tiboran Rossiya rezidentligiga aylantiriladi. Mazkur muassasa 1920-yilga qadar bir necha marotaba qayta nomlangan bo'lsada, hukmron doiralar manfaati va maqsadining ijrochisi vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy arxivi (*keyingi o'rinlarda – O'zbekiston MA*) I-1-fond, 34-ro'yxat, 603-yig'majild, 1-4-varaqlar.
2. O'zbekiston MA, I-1-fond, 34-ro'yxat, 603-yig'majild, 9-13-varaqlar.
3. O'zbekiston MA, I-1-fond, 34-ro'yxat, 603-yig'majild, 18-19-varaqlar.
4. O'zbekiston MA, I-1-fond, 34-ro'yxat, 603-yig'majild, 20-21 varaq.
5. O'zbekiston MA, I-1-fond, 34-ro'yxat, 603-yig'majild, 22-23 varaq.
6. O'zbekiston MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 272-yig'majild, 2-4-varaqlar.
7. O'zbekiston MA, I-1-fond, 34-ro'yxat, 604-yig'majild, 30-31-varaqlar.
8. O'zbekiston MA, I-2-fond, 2-ro'yxat, 515-yig'majild, 11-12-varaqlar; I-3-fond, 2-ro'yxat, 434-yig'majild, 2-3-varaqlar.